



TRADITIONS THAT WEAKEN OUR SOCIETY. HISTORY AND TODAY'S COMPATIBILITY

Pirmuhammad Xolmaxmatov ¹

¹ Student of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4768118>

ARTICLE INFO

Received: 5th May 2021
Accepted: 10th May 2021
Online: 15th May 2021

KEY WORDS

Pandemic, Subsidy, Mazi, Jadid, Islamic Council, Charity Society, Congress

ABSTRACT

This article discusses the harmful habits that are prevalent among our people today. The Jadids' views and analysis of the harmful effects of extravagant ceremonies and lavish weddings are widespread.

JAMIYATIMIZNI ZAIFLASHTIRAYOTGAN URF-DATLAR. TARIX VA BUGUN UYG'UNLIGI

Pirmuhammad Xolmaxmatov ¹

¹ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 5-May 2021
Ma'qullandi: 10-May 2021
Chop etildi: 15-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Pandemiya, Dotatsiya, Moziy, Jadid, Sho'roi, Islomiya, Jamiyati xayriya, Qurultoy

Bugungi og'ir zamonda har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati uning kelajagini belgilamoqda. Mana yaqin ikki yilki pandemiya butun dunyoni tiz cho'ktirdi. Yer sharining manaman degan qudratli davlatlari ham katta iqtisodiy zarar ko'rdi. Ushbu kasallik bizning mamlakatni ham ochiq aytaylik iqtisodiy jihatdan ancha yugurtirdi. Aniq ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak hozirgi kunda davlatimiz budjeti 14 mlrd

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda xalqimiz orasida avj olgan zararli odatlar haqida so'z boradi. Jumladan ortiqcha marosimlar, dabdabali to'y tamoshalar o'tkazishning zararli oqibatlari xususida jadidlarning qarashlari va tahlili keng o'rin egallaydi.

dotatsiyada¹ Shunday og'ir sharoitda ham hukumat yoshlar siyosatiga, kichik- biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini qo'llab- quvvatlashga katta mablag' ajratmoqda. Biroq jamiyatimizda umuman, xalqimiz orasida o'tkinchi narsalarga ruju qo'yish va haddan ziyod isrofgarchilikka yo'l qo'yilmoqda. Albatta bu masala jamiyatimizda bugun paydo bo'lgani yo'q, masalaning ildizi olisga

¹ O'zbekiston respublikasi Moliya vazirligi axboroti 2020-yil 11-aprel



borib taqaladi. Shu jumladan yechimini ham moziydan izlab ko'rsak maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. E'tiboringizga tariximizning eng tahlikali damlarida yurt ravnaqi yo'lida ayovsiz kurash olib borib yo'ning oxirida shafqatsiz tuzum qurboni bo'lgan jadid bobolarimizning bu masalaga qanday yondashishganini havola etamiz.

Muhtaram musulmonlar!

Hozirgi qiymatchilik va oziqsizlik shul qadar qo'rqinchiluk darajaga bordiki, ko'p oilalar, faqir va bechoralar pulga ham ozuq topolmasdan, ko'chaba-ko'cha sargardon bo'lib, necha kunlarga'acha och turmoqqa majburiyat ko'rurlar. Hozirda davom etub turg'on dahshatliq urush, bu yilgi suvsizlik va chogirdka balolari bu holni minba'd yana qo'rqinchiluk darajaga olib boradig'onga o'xshab ko'rinadur. Turkiston musulmonlarining syezdi mana shul holni e'tiborg'a olinmak oramizda bo'lub turg'on ba'zi bid'at va isrofot ishlarini, chunonchi, to'y, ma'raka, gap, bazm, yalochi, qozoqlar orasidagi uluq, poyga va janoza kuni bo'ladurg'on isrofotni bilkulliya barham bermog'a qaror berdi.²

«Sho'royi islomiya»ning 12 aprelda voqe' umumiy majlisida Toshkandning qozilari va ulamolari ham bu ishning aksarini shariatga xilof topdilar va o'z oralaridan bir komissiya saylab, to'y va ma'rakalarni shul komissiyalarga topshurdilar.

Birinchi. Janoza kuni imom va ulamolarga yirtish va choponlar ulashmoq, qarindosh-urug'larga qora kiyimliklardek narsalar bermog, yug'uchi va otunlarga ijroyi xizmatlaridan ziyoda

har xil kiyimlar bermog, otunlar kelib tovush chiqorib o'qimoq, sadr qilmoq, xotunlarga ulashiladig'on yetti, gul, qovoqoshi, qor yog'di, laylak keldi, qovun-tarvuz, yigirma, qirq, hayit, fotiha va yil oshidek xalqqa osh beriladurg'on isrofdur;

qozoqlar orasidagi yil oshi, poygalar va ahli kasabalar tarafidan arvoq, pari ismi bilan beriladurg'on osh va ziyofatlarni yo'q qilindi va bular badaliga janoza kuni davlatlik kishilar ulamo-imomlarga pul berish, xayrot qilmoqlari ham yuqorida mazkur ma'raka kunlarida mahalladan uch-to'rt kishi chaqirib, xatmi Qur'on qildirmoqlari mumkindir.³

Ikkinchi. Qiz to'ylarida sovchigarchilik, patir, kichik to'y, qozon qaytarish, katta to'y, bazm va kecha isroflari va yuz ko'rar, hayitlarda mol yoyib, kelin ko'rmoq, qiz oshi bermog va nikoh kunlarida yalochilar o'ynamoq, yor-yor aytmoq, xotunlarning har biriga alohida non va oshlar tortmoq, «to'qqiz-to'qqiz», sanduqlarda churib ketadurg'on gulko'rpa, falak, ko'rpalardek foydasiz mollar, ko'chalardin miyoncha ko'tarib yoki aroba va tuyalarga g'alla va boshqa xil narsalar ortib to'y yubormog, qozoqlardagi qalin olmoq va shunga o'xshash isrofot va bid'atlar bilkulliya mamnu'dur. Bunlar o'rnig'a kelin va kuyov taraflari kiyim va zaruriyat uy asboblari to'g'risinda pul ila bitishsunlar, ham nikoh kuni kuyov o'zi oshnalari va mahalla kishilari birlan bekarnay, faqat surnay bilan borub, nikoh qilurlar va kelin taraf o'z qarindoshlari birla kelinni olib borurlar. Faqat kuyov ila boradurg'on kishilarning yigirma-qirq kishidan oshmaslig'i lozimdur. Chorlari ham

² M.Q.Abdurashidxonov Najot gazetasi 1917-yil 27-aprel soni

³ M.Q.Abdurashidxonov Najot gazetasi 1917-yil 27-aprel soni



martaba kuni bo'lib, kuyov ila birga boradurg'on kishilardan kelin ila boradurg'on xotunlar ham o'n kishidan ortuq bo'lmasun. Chorlari faqat taom yemoq uchungina bo'lib, tugib olib ketmoqlari va yana beshik to'yi, chillagarizonlar butunlay yo'qolib bitsunlar.

Uchinchi. O'g'il to'yida atrofdagi mahallalardan odamlar chaqirub, osh bermoq, uloq bermoq, xotun oshi bermoq, xatna qilinadurg'on bolalarg'a nasha va ham ko'chaba-ko'cha sargardon qilib, oqcha yig'moq va shunlarga o'xshag'on isroflar bilkulliya mamnu'dir. Faqat davlatlik kishilar ulamo va imomlarni chaqirub, kichikroq bir mavlud majlisi yasab va faqir kishilar mahalladan uchto'rt kishinigina chaqirub, o'g'illarini xatna qildirurlar.

«SHo'royi islomiya» davlatlik kishilardan iltimos qiladurki, mavlud majlisini ham ko'b katta yubormasdan, mumkin qadar qasdi rioya qilsalar (tejab sarf qilsalar) ham to'yda... pul va g'alla sarfi mahallalaridag'i och va yalang'och, beva-bechoralarg'a, maktab va madrasa va «Jamiyati xayriya»larg'a bersalar.

Ushbu tartibg'a muxolifat qilg'on kishilarning ma'raka va to'ylari to'xtamli va aybnoma (protokol) yozub, qozilarg'a topshurmoq va shahar boshluqlarig'a havola qilinadi. Bunday kishilarg'a ittifoqi musulminni bu kim omilini va shar'an harom bo'lg'on isrofgarchilig'ini belgi uchun muhtaram qozilar shariatg'a muvofiq qattig' jazog'a mustahiq qiladurlar. Muhtaram mahalla imomlari va mahalla komitetlaridin iltimos qiladurki, ushbu e'lonnomani xalqqa tushuntirib, xalqni ushbu tartibdan chiqmasligiga

targ'ib va tashviq qilsalar edi. Chunki janobi Haq ta'oliy isrof qilg'uvchilarni suymas.

«Sho'roi islom» raisi muovini Munavvar qori

Komissiyalar: Mullo Said Ahrorxon mahzum, Mullo Murodxo'ja eshon, Mullo Abdusame' qori.⁴

Ko'rib turganingizdek jadidchilik namoyondalari, tariximizdagi birinchi demokratik davlat Turkiston muxtoriyatini shakllantira turib avvalo, millatimiz rivojiga to'sqinlik qiluvchi mana ma'nan ozuqasiz va iqtisodiy jihatdan befoyda ishlardan xalos bo'lish yo'llarini izlagan. Ularning bu masaladagi qarashlari bugungi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Xulosa shuki, biz ham iqtisodiy jihatdan dunyoning eng riviylangan mamlakatlaridan o'zib ketishni istisak, hayotimiz yanada farovon bo'lishini istisak avvalo jamiyatimizni ichidan tarbiyalashimiz kerak. Chunki tajriba shuni ko'rsatmoqdaki faqatgina tashqi himoyalaniish samarasizdir.

⁴ Sho'roi Islom Qarornomasi.1917-yil 16-23-apreldagi qurultoyda so'zlangan nutqdan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy Tanlangan asarlar 1997-uyil Toshkent.
2. "Najot" gazetasi 1917-yil 27-aprel soni.
3. Moliya vazirligi rasmiy sayti. Minfin.uz
4. "Sho'roi Islomiya"ning 1917-yil aprel oyida o'tkazilgan 1-qurultoyi majlis qarornomasi.